

KONFLIKTOLOGIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING UMUMIY TASNIFLANISHI

Nosirbekov Kozimbek Sunnatbek o'g'li,

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

E-mail address: kozimkhabek@gmail.com

Telefon raqami: +998974488565

Annotatsiya:

Insoniyat tarixi vujudga kelibdiki, doimiy ravishda qarama-qarshiliklar, urushlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlarga boy bo'lib kelgan. Konflikt insoniyat eng katta yuzlashgan va yuzlashib kelayotgan real hodisalardan biri hisoblanadi. Hozirgi kundagi konfliktlarni samarali hal qilish va ularga nisbatan to'g'ri diagnoz qo'ya olish uchun, avvalo, konfliktning kelib chiqish tarixi, omillari, elementlari va asosiy bosqichlarini tadqiq etishga zaruriyat tug'iladi. Insoniyat hayoti mobaynida tinchlikka erishish, ozod va mustaqil yashashi uchun bosib o'tgan yo'lini konfliktlar bilan o'zaro chambarchas bog'lash ilmiy sohada ham keng tadqiq etib kelinadi.

Kalit so'zlar: konfliktologiya, qarama-qarshiliklar, o'zaro to'qnashuv, ta'sir etish omillari, urush, konfliktlar nazariyasi, zo'ravonlik, salbiy va ijobiy motivlar.

Birinchi insoniyat jamoalari bilan paydo bo'lgan to'qnashuvlar kundalik hodisalar bo'lib, uzoq vaqt davomida ilmiy tadqiqot obyekti bo'lmagan, garchi bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbalarda ular haqida yorqin fikrlar mavjud bo'lsada. Vaqt o'tishi bilan turmush sharoiti o'zgaradi, konflikt turlari hamda shakllari ham evolyutsion davrda o'zgarib bordi. Ularning jismoniy, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlari davr mohiyatidan kelib chiqib boshqacha tus ola boshladi. Ijtimoiy tafakkurning konfliktlarga nisbatan bo'lgan munosabati o'zgarishsiz qolmadi. Qadimgi davr bizga urushlarning batafsil tavsifini va ushbu turdagi to'qnashuvlarning dastlabki baholarini yorqin ravishda ko'rsatib bera oldi. O'rta asrlarda va yangi davrda konfliktlarning mohiyatini tushunish va ilmiy asoslashga harakat qilina boshlandi. Butun bir insonparvar mutafakkirlar galaktikasi to'qnashuvlar, ularning insoniyat taraqqiyotidagi rolining naqadar zararli ekanligi, rivojlanish bosqichlariga qanchalik ta'sir etishi, jamiyat hayotiga tug'dirishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlari haqida fikr yuritishda davom etdi. Jamiyat hayotidan urushni yo'q qilish va abadiy tinchlik o'rnatish haqidagi g'oyalarini ifoda etdi. Ko'rib chiqilayotgan muammolarning



bizgacha yetib kelgan birinchi natijalari miloddan avvalgi VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. O'sha davrda yashagan va ijtimoiy muhitni o'rganib, unga to'laqonli ravishda munosabat bildirishga harakat qilgan xitoy mutafakkirlari barcha narsaning rivojlanish manbai materiyaga xos bo'lgan ijobiy (yan) va salbiy (yin) tomonlarning munosabatlarida, deb hisoblashgan. Ular doimiy qarama-qarshilikda bo'lib, ularning to'qnashuviga olib keladi degan fikrlarni ilgari surgan.¹

Qadimgi yunon faylasufi *Geraklit* (miloddan avvalgi 530 - 470 yillar) urushlar va ijtimoiy konfliktlar haqidagi fikrlarini olam tabiati haqidagi umumiy qarashlar tizimi bilan bog'lashga harakat qilgan. Uning uchun hamma narsa abadiy aylanish va o'zaro o'zgarish, shu jumladan insoniy me'yorlar bilan uyg'unlashgan degan xulosaga kelgan.

Bu davr urush kabi ijtimoiy konfliktning roliga oid birinchi umumlashgan qarashlarni o'z ichiga oladi. *Geraklit* urushni hamma narsaning otasi va podshohi deb atagan bo'lsa, *Platon* (miloddan avvalgi 428-348 yillar) esa urushni – eng katta yovuzlik deb hisoblagan. Uning fikricha, bir paytlar “odamlar bir-birini sevib, bir-biriga mehr bilan munosabatda bo'lgan” va shu boisdan bu davrni “oltin davr” deb atagan.

Geraklitga Gerodot (miloddan avvalgi 490–425 yillar) qarshi chiqqan. Uning ta'kidlashicha, "hech kim urushni tinchlikdan afzal ko'radigan darajada beparvo emas" – degan iddaoni bildirgan edi. Materialist faylasuf *Epikur* (miloddan avvalgi 341-270 yillar) ham to'qnashuvlarning salbiy oqibatlari odamlarni bir marta tinch holatda yashashga majbur qiladi, deb hisoblagan.

Xristian falsafasiga muvofiq, o'zining rivojlanishining dastlabki davrida odamlar o'rtasidagi tinchlik, totuvlik va birodarlikning afzalliklarini isbotlashga intildi. Uning ko'zga ko'ringan vakillari qurolli to'qnashuvlarga qarshi qaratilgan argument ishlab chiqdilar, ammo bu tarixiy taraqqiyotning tabiiy yo'nalishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

Foma Akvinskiy (1225 - 1274) jamiyat hayotida urushlarga yo'l qo'yilishi haqidagi fikrlarni rivojlantirib, adolatli urushning yana bir shartini belgilab berdi: buning uchun hukumat tomonidan sangsiya e'lon qilish uchun vakolat bo'lgan taqdirdagina urush mantiqiy asosga ega bo'lishi mumkinligini ifodaladi. Shunday bo'lsada, uning fikricha, "urush va zo'ravonlik har doim gunohdir"².

Ijtimoiy konfliktlarni tizimli tahlil qilishga birinchi urinishlardan biri florensiyalik nazariyotchi va davlat arbobi *Nikkolo Makiavelli* (1469-1527) tomonidan qilingan.

¹ А. С. ХОХЛОВ КОНФЛИКТОЛОГИЯ ИСТОРИЯ. ТЕОРИЯ. ПРАКТИКА Учебное пособие. 2021.

² Хасан, Б.И. Психотехника конфликта / Б.И. Хасан. – Красноярск, 2015.



O'rta asrlarning buyuk nazariyotchisi konfliktni insonning yovuz tabiati, turli guruhlarning doimiy va cheksiz moddiy boyitishga intilishi tufayli jamiyatning universal va uzluksiz holati deb hisoblagan. N.Makiavelli ijtimoiy konfliktning manbalaridan biri dvoryanlar deb hisoblab, davlat hokimiyatining barcha to'liqligini uning qo'lida jamlagan. U zodagonlarga nisbatan salbiy munosabatda edi. Shunga qaramay, Makiavelli konfliktda nafaqat buzg'unchi, balki ijobiy funktsiyani ham ko'ra bilgan edi. Konfliktning salbiy rolini kamaytirish uchun siz unga to'g'ri ta'sir qila olishingiz kerak – degan fikr ham bunga yaqqon misol bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda, davlat – bu vazifani bajarishga chaqirilgan va yollangan ishchidir, deb hisoblaydi mutafakkir.

Erazm Rotterdamlik (1469 - 1536) - "urush uni bilmaganlar uchun yoqimli", deb ta'kidladi va boshlangan konfliktning o'ziga xos mantig'i mavjudligiga ishora qildi, bu zanjir reaksiyasi kabi kuchayib boradi va har doim yangi segmentlarni o'z ichiga qamrab oladi, uning ta'siri orbitasiga aholi va mamlakatlar qo'shilishi tabiiy holdir – degan g'oya ham o'sha davr uchun qaysidir ma'noda haqli bildirilganligiga shubha qolmasligi uchun, hozirgi ilmiy muhitda uning fikrini o'qlovchilar borligidan sezsak ham bo'ladi. E.Rotterdam urushlarning sabablarini tahlil qilar ekan, hukmdorlarning tubanlik va xudbinlik fazilatlarini ko'pincha xalqlarni urushlarga cho'mishiga sabab bo'lishini ta'kidladi.

Frensis Bekon (1561 - 1626) – birinchi bo'lib mamlakat ichidagi ijtimoiy konfliktlarning sabablari tizimini chuqur nazariy tahlilga tortdi. Ular orasida odamlarning moliyaviy ahvolining og'irligi konfliktlar yuzaga kelib chiqishiga asosiy sabab bo'luvchi omildir – degan fikri ilmiy asosga egaligini hozirgi davr muhitida ham ko'rishimiz mumkin.

Tomas Xobbs (1588 - 1679) – Leviafanda "hammaning hammaga qarshi urushi" tushunchasini tabiiy holat sifatida asoslab berdi. U konfliktning asosiy sababini odamlarni bir xil umidlar sari yetaklaydigan tenglikka doimiy harakat qilib kelishi, o'zini saqlab qolish yoki rohatlanish uchun zarur bo'lgan bir xil narsalarni egallab olishga intilish deb hisoblagan va bu odamlarni dushmanga aylantiradi, ishonchsizlik va ambitsiyani kuchayishiga olib keladi hamda raqobatni yuzaga keltirib chiqaradi – degan fikri konfliktologiyaning ilmiy merosini boyitishga o'z xissasini qo'shgan, albatta.

Adam Smit (1723 - 1790) - konflikt xususiyatlari o'zining "Xalqlar boyligining tabiati va sabablarini o'rganish" asarida ko'rib chiqqan. Konfliktning asosiy kelib chiqish sabablari sifatida – jamiyatning sinflarga bo'linishi (kapitalistlar, yer egalari, yollanma ishchilar) va iqtisodiy raqobatga asoslanganligida deb ko'rsatadi. A.Smit



sinflar o'rtasidagi qarama-qarshilikni jamiyatning progressiv rivojlanishi manbai, ijtimoiy konfliktni esa, insoniyatning ma'lum bir manfaati deb hisobladi.³

Nemis faylasufi *Immanuel Kant* (1724 - 1804) mahallada yashovchi odamlar o'rtasidagi tinchlik holati tabiiy holat emas, deb hisoblagan. Ikkinchisi, aksincha, urush holati, ya'ni, agar doimiy harbiy harakatlar bo'lmasa, unda doimiy tahdid yuzaga kelish xavfi mavjudligi haqida ogohlantiradi.

Nemis faylasufi *Georg Hegel* (1770-1831) fikricha, konfliktning asosiy sababi bir tomondan "boylik to'plash" va ikkinchi tomondan "mehnatga bog'liq sinf" o'rtasidagi ijtimoiy qutblanishdadir. Kuchli davlat hokimiyati tarafdori bo'lgan Hegel mamlakat ichidagi ommaviy tartibsizlik va boshboshadoqliklarga qarshi chiqdi va ularni davlat birligiga putur yetkazadi degan g'oyani ilgari surdi.

Charlz Darvin (1809-1902) ta'limotida mavjudlik uchun kurash muammosi asosiy o'rinni egalladi. Uning biologik evolyutsiya nazariyasining mazmuni 1859 yilda nashr etilgan "Tabiiy tanlanish yo'li bilan turlarning kelib chiqishi yoki hayot uchun kurashda qulay zotlarni saqlash" kitobida bayon etilgan. U bildirgan asosiy fikr shundan iborat ediki: "Yovvoyi tabiatning rivojlanishi va yashashi doimiy kurash sharoitida amalga oshiriladi, bu eng munosib turlarni tanlashning tabiiy mexanizmini tashkil qiladi". Ch.Darvinning bu qarashi qaysidir ma'noda bevosita davlat va jamiyat muhitida yashash hamda moslashish uchun harakat qilib kelayotgan individ yokida guruhlar uchun muhim amaliy ko'nikma bo'lishiga hech qanday shubha bo'lmasligi tabiiy holatdi.

Umuman olib qaraganda, konfliktologiyaning tarixiy asoslari va rivojlanish bosqichlarini umumlashtiradigan bo'lsak, konfliktning tarkibiy elementlariga yaqqol guvoh bo'lishimiz mumkin, ya'ni, ular:

Konflikt ishtirokchilari - konflikt holatida bo'lgan va konfliktda aniq yoki bilvosita qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy o'zaro ta'sir subyektlari.

Konfliktning obyekti - konfliktni keltirib chiqaradigan omillar.

Konfliktli vaziyatning tasviri konfliktli o'zaro ta'sir subyektlari ongida konflikt predmetining aksidir.

Konflikt motivlari - bu ijtimoiy o'zaro ta'sir subyektlarini konfliktga undaydigan ichki turtki beruvchi kuchlar (motivlar, ehtiyojlar, manfaatlar, maqsadlar, ideallar, e'tiqodlar shaklida namoyon bo'ladi).

Qarama-qarshi tomonlarning pozitsiyalari - bu konflikt paytida yoki muzokaralar jarayonida bir-biriga e'lon qiladigan ma'lumotlar birlashmasi.

³ <https://studfile.net/preview/7122201/> - Конфликтология, её предмет и задачи, история становления как науки. Формирование отечественной школы конфликтологии.



Konfliktning sabablari - bu konfliktidan oldin yuzaga keladigan va ijtimoiy o'zaro ta'sir subyektlari faoliyatining muayyan sharoitlarida uni keltirib chiqaradigan hodisalar, faktlar va vaziyatlar.

Konfliktli vaziyat - bu ijtimoiy o'zaro ta'sir subyektlari faoliyati bilan bog'liq to'plangan qarama-qarshiliklar va ular o'rtasida haqiqiy qarama-qarshilik uchun asos yaratadigan sabablar.

Voqea - bu konfliktni keltirib chiqaradigan holatlar yig'indisi.⁴

Yuqorida sanab o'tilgan konfliktning tarkibiy elementlari, bevosita konflikt paydo bo'lishining asosiy bosqichlarini ham yuzaga keltirib chiqaradi:

1. **Konfliktli vaziyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi.** Konfliktli vaziyat ijtimoiy o'zaro ta'sirning bir yoki bir nechta subyektlari tomonidan yaratiladi va bu uning zaruriy shartidir.

2. **Ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilaridan kamida bittasining konfliktli vaziyatdan xabardorligi va uning bu faktni his eta olish tajribasi.** Bunday xabardorlikning oqibatlar va tashqi ko'rinishlari hamda u bilan bog'liq hissiy tajribalar quyidagilar bo'lishi mumkin: kayfiyat o'zgarishi, potentsial dushman haqida tanqidiy va yoqimsiz bayonotlar, u bilan aloqalarni cheklash.

3. **Ochiq konfliktli o'zaro ta'sirning boshlanishi.** Bu bosqich konfliktli vaziyatni anglagan ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilaridan biri "dushman" ga zarar yetkazishga qaratilgan faol harakatlarga (demarsh, bayonot, ogohlantirish va boshqalar shaklida) o'tishida ifodalanadi". Shu bilan birga, boshqa ishtirokchi bu harakatlar o'ziga qarshi qaratilganligini tushunadi va o'z navbatida konflikt tashabbuskoriga qarshi faol javob reaksiyasini bildirishga harakat boshlaydi.

4. **Ochiq konfliktning rivojlanishi.** Ushbu bosqichda qarama-qarshi tomonlar o'z pozitsiyalarini ochiqchasiga e'lon qiladilar va talablarni ilgari suradilar. Shu bilan birga, ular o'z manfaatlaridan bexabar bo'lishlari, konfliktning mohiyati va predmetini tushunmasliklari mumkin.

Har bir bosqichda konfliktlarning o'sib borish surati keskinlashadi yoki aksincha, o'z kuchini yo'qotadi. Shu boisdan konfliktlarning o'sib borishi yoki pasayishi bevosita konfliktlarga nisbatan qo'llaniladigan strategiyalarga bog'liqligini kuzatishimiz mumkin bo'ladi.

⁴ <https://cyberleninka.ru/article/n/konflikt-kak-sotsialnoe-yavlenie> (дата обращения: 25.12.2020).



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. А.С.Хохлов конфликтология история. Теория. Практика. Учебное пособие. 2021.
2. Хасан, Б.И. Психотехника конфликта / Б.И. Хасан. – Красноярск, 2015.
3. <https://studfile.net/preview/7122201/> - Конфликтология, её предмет и задачи, история становления как науки. Формирование отечественной школы конфликтологии.
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/konflikt-kak-sotsialnoe-yavlenie> (дата обращения: 25.12.2020).
5. Гребенюк, Т. А. Конфликтные ситуации / Т. А. Гребенюк, И. А. Бусоедов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2016. — № 10 (114). — С. 675-678. — URL: <https://moluch.ru/archive/114/30202/> (дата обращения: 25.12.2020).

